



“FILOLOGIK KOMPARATIVISTIKA VA TARJIMASHUNOSLIK MASALALARI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

2025-yil, 12-13-noyabr

“PROBLEMS OF COMPARATIVE PHILOLOGY AND TRANSLATION STUDIES”

international scientific and practical conference

November 12-13, 2025



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI
UNIVERSITETI

TARJIMA NAZARIYASI VA AMALIYOTI KAFEDRASI

**“FILOLOGIK KOMPARATIVISTIKA VA
TARJIMASHUNOSLIK MASALALARI”**

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya to‘plami

2025-yil, 12-13-noyabr

THE MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE AND
INNOVATIONS OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

ALISHER NAVO‘I TASHKENT STATE UNIVERSITY
OF UZBEK LANGUAGE AND LITERATURE

THE DEPARTMENT OF “TRANSLATION THEORY AND PRACTICE”

Proceedings of the International Scientific and Practical Conference titled

**“PROBLEMS OF COMPARATIVE PHILOLOGY
AND TRANSLATION STUDIES”**

November 12-13, 2025

Tashkent – 2025

UO‘K 845.711.05

KBK 133.585.3 “Filologik komparativistika va tarjimashunoslik masalalari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya to‘plami. – Toshkent, 2025. – 889 b.

ISBN 978-9910-8871-6-1

Mas’ul muharrir:
Shuhrat SIROJIDDINOV
akademik

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti rektori

Tahrir hay’ati:

Nozliya Normurodova (O‘zbekiston), Zuhridin Isomiddinov (O‘zbekiston), Elizabetta Ragagnin (Italiya), Gabriela Shtoecli (Shveytsariya), Qosimboy Mamurov (O‘zbekiston), Sayed Mohamed Ahmad Korayem (Misr), Uzoq Jo‘raqulov (O‘zbekiston), Gulnoz Xalliyeva (O‘zbekiston), Yurgen Yakob Beker (Germaniya), Kemal Yavuz Ataman (Turkiya), Xurram Raximov (O‘zbekiston), Natalya Filimonova (Rossiya), Nedim Bakirci (Turkiya), Farhad Rahimi (Eron), Xayrulla Hamidov (O‘zbekiston), Elmira Adilbekova (Qozog‘iston), Sag‘inbek O‘rinboev (Qirg‘iziston), Zulxumor Xolmanova (O‘zbekiston), Mahmadiyor Asadov (O‘zbekiston), Ziyodaxon Teshaboyeva (O‘zbekiston), Dilnavoz Yusupova (O‘zbekiston), Islomjon Yakubov (O‘zbekiston), Nargiza Rashidova (O‘zbekiston), Sabohat Qahharova (O‘zbekiston), Hafiza Qo‘chqorova (O‘zbekiston,) Nigora Sulaymonova (O‘zbekiston), Dilafruz Muhammadiyeva (O‘zbekiston), Dostonbek Ahmadov (O‘zbekiston), Dilnoza Shonazarova (O‘zbekiston).

Mazkur xalqaro konferensiya materiali filologik komparativistika va tarjimashunoslikning dolzarb nazariy hamda amaliy masalalarini zamonaviy ilmiy yondashuvlar asosida yoritishga bag‘ishlanadi. To‘plamda turli milliy adabiyotlar, tillar va madaniyatlar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir, adabiyotlararo aloqalar, qiyosiy-tipologik va qiyosiy-genetik tadqiqotlar, badiiy va maxsus matnlarni tarjima qilish muammolari, tarjima strategiyalari va ekvivalentlik masalalari tahlil qilinadi. Shuningdek, konferensiya materiallarida tarjima nazariyasining zamonaviy konsepsiyalari, tarjimon kompetensiyasini shakllantirish, tarjimoni o‘qitish metodikasi, madaniyatlararo kommunikatsiya hamda globallashuv sharoitida tarjimaning ijtimoiy-madaniy ahamiyati kabi masalalar keng yoritiladi. Ilmiy maqolalar filologik komparativistika va tarjimashunoslik sohalarida faoliyat yuritayotgan olimlar, tadqiqotchilar, doktorantlar, magistrantlar hamda talabalar uchun mo‘ljallangan bo‘lib, fanlararo integratsiyani kuchaytirishga hamda nazariya va amaliyot uyg‘unligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Mualliflar qarashi va asarlar nomlaridagi imlo tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.

To‘plam Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Ilmiy-texnik kengashining 2025-yil 17-dekabrda 6-sonli yig‘ilish qaroriga asosan nashrga tavsiya etilgan.

UO‘K 845.711.05

KBK 133.585.3 Proceedings of the International Scientific-Practical Conference on the topic
“Problems of comparative philology and translation studies”. – Tashkent, 2025. – 889 p.

ISBN 978-9910-8871-6-1

Editor-in-Chief:

Shuhrat SIROJIDDINOV

Academician

Rector of Alisher Navo'i Tashkent State University of Uzbek Language and Literature

Editorial Board:

Nozliya Normurodova (Uzbekiston), Zuhridin Isomiddinov (Uzbekiston), Elizabetta Ragagnin (Italy), Gabriela Stöckli (Switzerland), Qosimboy Mamurov (Uzbekiston), Sayed Mohamed Ahmad Korayem (Egypt), Uzok Djoraqulov (Uzbekiston), Gulnoz Khallieva (Uzbekiston), Jürgen Yakob Beker (Germany), Kemal Yavuz Ataman (Turkiye), Khurram Rakhimov (Uzbekiston), Natalya Filimonova (Russia), Nedim Bakirci (Turkiye), Farhad Rahimi (Iran), Khayrulla Hamidov (Uzbekiston), Elmira Adilbekova (Kazakhstan), Sag‘inbek O‘rinboev (Kyrgyzstan), Zulxumor Xolmanova (Uzbekiston), Mahmadiyor Asadov (Uzbekiston), Ziyodakhon Teshaboyeva (Uzbekiston), Dilnavoz Yusupova (Uzbekiston), Islomjon Yakubov (Uzbekiston), Nargiza Rashidova (Uzbekiston), Sabohat Qahharova (Uzbekiston), Hafiza Qo‘chqorova (Uzbekiston,) Nigora Sulaymonova (Uzbekiston), Dilafruz Muhammadiyeva (Uzbekiston), Dostonbek Akhmadov (Uzbekiston), Dilnoza Shonazarova (Uzbekiston).

This international conference articles are dedicated to illuminating the current theoretical and practical issues in philological comparativistics and translation studies based on the modern scientific approaches. The collection analyzes of mutual influences between different national literatures, languages and cultures; interliterary connections; comparative-typological and comparative-genetic studies; the issues of translating literary and specialized texts; translation strategies and problems of equivalence. Furthermore, the conference materials extensively cover the topics such as: contemporary concepts in translation theory, the formation of a translator competence, methodologies for teaching translation, intercultural communication and socio-cultural significance of translation in the context of globalization. The given scientific articles are intended to scientists, researchers, doctoral students, master’s students and undergraduate students who actively working in the fields of philological comparativistics and translation studies and they serve to strengthen interdisciplinary integration as well as to ensure the harmony between theory and practice.

The views expressed in the articles do not necessarily reflect those of the editorial board.

The publication was recommended by the Scientific and Technical Council of Alisher Navo'i Tashkent State University of Uzbek Language and Literature on December 17, 2025.

“BOBURNOMA”NING TURKCHA TARJIMASI BILAN BOG‘LIQ MUAMMOLAR

Dilafruz Muhammadiyeva,

ToshDO‘TAU dotsenti, PhD

DOI: 10.52773/tsuull.conf.2025.12.11/PIAN3658

Annotatsiya. “Boburnoma” dunyo ilm ahli tomonidan tilshunoslik, adabiyotshunoslik yo‘nalishlarida, geografik va tarixiy aspektlarda o‘rganilgan. Bu qomusiy asar matnining hali o‘rganilishi lozim bo‘lgan qirralari juda ko‘p. “Boburnoma” matni ensiklopedik xarakterda bo‘lib, seysmologiya, fizika, biologiya, zoologiya, botanika, tibbiyot sohalariga oid tushunchalar tadqiqi dolzarb masalalardan hisoblanadi. “Boburnoma”ning tarjimalari haqida yaxlit, mukammal tadqiqot olib borilmagan. Ammo bir necha tadqiqot ishlarida ayrim ma’lumotlar uchraydi. O‘zga tillarga qilingan tarjimalarning saviyasini aniqlash, ularni o‘zaro qiyoslab o‘rganish orqali asarning ilmiy qimmatini belgilash o‘zbek xalqining jahondagi boshqa xalqlar bilan adabiy-madaniy aloqalarini o‘rganish nuqtayi nazaridan ham muhimdir.

Kalit so‘zlar: “Boburnoma”, asliyat, tarjima muammolari, turkcha, qozoqcha, gap qurilishi, birikma, paremiya.

Abstract. The Baburnama has been examined by scholars worldwide from linguistic, literary, geographical, and historical perspectives. However, numerous aspects of this encyclopedic work still require further scholarly investigation. The text of The Baburnama itself possesses an encyclopedic nature, and the study of concepts related to seismology, physics, biology, zoology, botany, and medicine remains a pressing academic concern. To date, no comprehensive or systematic research has been carried out on the translations of The Baburnama. Nevertheless, some fragmented information can be found within a number of studies. Evaluating the quality of translations into other languages and comparing them with one another to determine the scholarly value of the work is significant in terms of exploring the literary and cultural relations between the Uzbek people and other nations.

Keywords: Baburnama, original text, translation issues, Turkish, Kazakh, sentence structure, phrase, paremia (proverbial expression).

Asar tarjimalarining tadqiqoti shuni anglatadiki, har qanday vaziyatda ham tarjimon asliyatdan yiroqlashmasligi, asar zamiridagi so‘z va frazemalar, realiyalar yoki joy nomlari, tarixiy shaxslar ismlarini tarjima qilishda ehtiyotkorlik bilan yondashishi lozimligini ko‘rsatadi. Chunki asliyat mansub bo‘lgan xalq urf-odatlarini va milliy-madaniy xususiyatlarini, diniy, iqtisodiy-ijtimoiy turmush tarzini mukammal o‘rganmay turib, asarda tasvirlangan voqea-hodisalar to‘g‘risida yetarli tasavvur hosil qilish, shakl va mazmunning uyg‘unligidan iborat tarjima yaratish juda qiyindir. Har qanday tarjima zamini shakl va mazmunning dialektik birligini tashkil etadiki, uning mazmuniga ko‘proq urg‘u berib, shaklga e‘tiborni susaytirish asarning badiiy va milliy xususiyati, tarixiy o‘ziga xosligiga putur yetishiga olib keladi.

“Boburnoma” turkcha va qozoqcha tarjimalarida uchraydigan muammolar:

1. So‘zlar ma’nosini anglamaslik va buning oqibatida noto‘g‘ri tarjimaning yuzaga kelishi bilan bog‘liq muammolar.
2. Birikmalarning noto‘g‘ri tarjima qilinishi bilan bog‘liq muammolar.
3. Gap qurilishi bilan bog‘liq muammolar.
4. Barqaror birliklar – paremiyalar bilan bog‘liq muammolar.
5. Tarjima sifatiga ta’sir qiladigan bu muammolar quyida misollar yordamida asoslandi.

1. So‘zlar ma’nosini anglamaslik va buning oqibatida noto‘g‘ri tarjimaning yuzaga kelishi bilan bog‘liq muammolar. Masalan: Turkcha: *Oqar suvlari bor, bahori bisyor yaxshi bo‘lur, qalin lola va gullar ochilur* (Boburnoma, 3b) gapi *Akar sulari vardir. Bahari çok güzel olur; birçok lüle ve güller açar* (Vekayi, 3b) tarzida tarjima qilinadi. Bu yerda o‘zbek tilidagi *gul* so‘zi turk tilida ham *gül* tarzida o‘girilgan. Gap shundaki, turk tilida *gül* so‘zi *atirgul* ma’nosini beradi, *gul* ma’nosida esa *çeçek* so‘zi qo‘llanadi. Agar tarjimada so‘z bilan bog‘liq kamchiliklar bir yoki ikki marta kuzatilsa, bu muammo tarzida olib chiqish uchun asos bo‘la olmaydi, bunday misollar tarjimada ko‘plab uchraganligi sababli asosiy muammo sifatida yechim talab qiladi.

Qozoqcha: *To‘n (7a) ni bisyor tor kiyar edi, andog‘ kim, bog‘ bog‘laturda qornini ichiga tortib bog‘latur edi, bog‘ bog‘lag‘ondin so‘ng o‘zini qo‘ya bersa, bisyor bo‘lur erdikim, bog‘lari uzulur edi.* Ushbu gapdagi *uzulur* fe‘li tarjimada *ашылым (ochilib)* tarzida o‘g‘irilgan, ikkala harakatning ma‘noviy yaqinligi bo‘lmaganligi uchun bu holat tarjima kamchiligi hisoblanadi. *Uzulmoq* fe‘li o‘rniga *yechilmoq* fe‘lini berganda mazmun biroz yaqin kelar edi, shunda ham matndagi ma‘no to‘liq yuzaga chiqmasdi.

2. Birikmalarning va gaplarning noto‘g‘ri tarjima qilinishi bilan bog‘liq muammolar:

Turkcha: *Bir jins anor bo‘lur, “donakalon” derlar, chuchuklugida zardolu mayxushlugidin andak choshni bor* (Boburnoma, 3b).

Dânekelân dedikleri bir cins nar vardır ki, tatlılık ve mayhoşlukta Semnan narlarına (3 b) tercih edilebilir. Ushbu gapda *chuchuklugida zardolu mayxushlugidin* birikmasi *tatlılık ve mayhoşlukta* tarzida teng birikma qilib tarjima qilingan. Shu bilan birgalikda asl matndagi ma‘nosiga ham putur yetgan.

Ov qushi yaxshidur, oq kiyik yovuqta topilur (Boburnoma, 4 a).

Avı ve kuşu iyidir; ak geyik, yakınında bulunur (Vekayı, 4b).

Ushbu misolda esa qaratqichli birikma teng birikmaga aylantirilgan holda o‘g‘irilgan, asl matn mavzusi butunlay o‘zgarib ketgan.

Qozoqcha: *Isfaraning bir shar‘isida janub sori pushtalarning orasida bir parcha tosh tushubdur, «Sangi oyina» derlar, uzunlug‘i taxminan o‘n qari bo‘lg‘ay, balandlig‘i ba‘zi eri kishi bo‘yi, pastlig‘i ba‘zi eri kishining belicha bo‘lg‘ay, oyinadek har nima mun‘akis bo‘lur* (Boburnoma, 4a) gapidagi “Sangi oyina” atoqli ot, u qozoq tiliga “айна тасы” tarzida o‘g‘irilgan, odatda atoqli otlar tarjima qilinmasligini hisobga olsak, buni ham kamchilik sifatida baholash mumkin.

Асфараның қырық сегіз шақырымының оңтүстік бағытында төбелердің арасында бір жар тас түскен. Ол “айна тасы” делінеді. Ұзындығы шамамен он [3] қары болған. Биіктігі кейбір жерінде кісінің беліне дейін болған. Айнадай әр жартысы сәулеленіп жаңғырып тұрады.

Asardagi “sebi Samarqand”, “anori Xo‘jand” kabi izofalar ham *Самарқанд алмасы, Хожәнд анары* kabi tarjimalarda berilgan. Shuningdek, “Xamsatayn” so‘zi ham Бестік tarzida tarjima qilingan. Bu kabi atoqli otlarning tarjimada berilishi ijobiy hodisa emas deb baholaymiz.

“Hamsatayn” va masnaviy kitoblarini va tarixlarni o‘qub erdi – *Бестік пен мәснәуи жанрындағы кітаптарды оқыған еді; Nechukkim, “sebi Samarqand” va “anori Xo‘jand” derlar – Самарқанд алмасы, Хожәнд анары едәуір атақты.*

Qozoqcha tarjimada ba‘zi hollarda so‘z birikmasi teng bog‘lanishli birikmaga aylantirib tarjima qilingan, buning natijasida bir predmetni ifodalovchi qaratqich-qaralmishli birikma ikkita predmetga aylanib qolgan va mazmunga putur yetgan.

Ov qushi yaxshidur – Аң-құсы мол.

Asliyat matni bilan tarjima matni o‘rtasidagi lisoniy farqlar qiyoslanayotgan har ikki tilning barcha sathlar bo‘yicha o‘zaro muvofiq emasligi bilan belgilanadi. Ko‘pincha bunday farqlar mazmun sathida emas, asosan, ifoda shakli sathida ko‘zga tashlanadi. Ammo bu matn mazmuniy mundariyasi unsurlari bir-biriga aynan mos keladi, degani emas. Chunki kommunikantlar tagbilimi bilan bog‘liq anglashiladigan mantiqiy-ma‘naviy axborotlarni ham o‘z ichiga oladi [Toshaliyeva, 2022:160].

3. Gap qurilishi bilan bog‘liq muammolar.

Tarjima jarayonida asl matndagi sodda gaplar ba‘zan qo‘shma gapga aylantirilgan yoki aksincha, ba‘zan ikki-uchta gap mazmuni olinib bir sodda gap tarzida ifodalangan. Tarjima nuqtayi nazaridan qaralsa, bu juda katta muammo amas, ammo

korpus yaratishda barcha gaplar raqamlanib, bir-biriga moslashtirilishini hisobga olsak, bu muammo yaratadi. Masalan:

Bu xabar Sulton Mas’ud mirzog’a kelgach, Vali Xisravshohkim, bu kechgan kishining ustiga bormoqni harchand sa’y qildi, Sulton Mas’ud mirzo bedillig’idin yo Boqi Chag’oniyoniyningkim, Valining ziddi edi, sa’yidin bu kechgan kishining ustiga bormadi. Buzulg’on yo ‘sunluq Hisor sari yondilar (Boburnoma 33b).

Ushbu asl matndagi 2 ta gap turkcha tarjimada bitta gap tarzida berilgan:

Sultan Mes’ud Mirza bunu haber alinca, Husrev Şah ile Veli derhal bunların üzerine yürümenin lüzumu üzerinde İsrar ettiler. Fakat Sultan Mes’ud Mirza’nın cesaretsizliğinden veya Veli’nin muhalifi olan Bâkî Çaganyâni’nin fikrine uymasından, bu suyu geçen adamların üzerine yürümeyerek, bozguna uğramış gibi, Hisar tarafına döndüler (Vekayı, 33b).

Gap mazmuni noto’g’ri o’girilgan holatlarga quyidagi misollarni berish mumkin: *Umarshayx mirzoning oxir zamonlarida qizil bila oq mavjliq tosh ushbu tog’da paydo bo’ldi. – Омар шейх мырза өмірінің соңғы кездерінде осы таудан ақ, қызыл жолақты тас тапқан.*

“Boburnoma” tabdilida ushbu gap *Умаршайх мирзо салтанатининг сўнги пайтлари ушбу тоғдан қизил ва оқ товланадиган тош топилди (Boburnoma, b.30)* deyilgan, anglashiladiki, toshning topilishida Umarshayx mirzoning aloqasi yo’q. Qozoqcha matnda Umarshayx mirzo umrining oxirgi paytlarida qizil va oq toshlarni topgan degan mazmun kelib chiqadi. Bu yerda fe’lning majhul nisbat emas, aniq nisbatda qo’llanishi mazmunning o’zgarishiga, harakat bajaruvchisining o’zgarishiga olib kelgan.

Men Kobulg’a kelganda, Shohbegim bila Samarqandtin Xurosong’a kelib, Xurosondin Kobulg’a keldilar – Мен Кабулга келгенде Шаh бегиммен бирге Самарқандтан Хорасаннан Кабулга келген болатын. Gap mazmunidan anglashiladiki, Shohbegim Samarqanddan birinchi Xurosonga kelgan, keyin u yerdan Kobulgaga borgan. Ammo qozoqcha matndan bunday ma’no kelib chiqmaydi: *Men Kobulgaga kelganimda Shoh begim bilan birga Samarqanddan va Xurosondan Kobulgaga kelgan edi.*

4. Barqaror birliklar – paremiyalar bilan bog’liq muammolar. Paremiyalar leksik birliklarga nisbatan murakkab komponentli lisoniy hodisa bo’lganligi sababli ularni tarjimada ifodalash ham tarjimondan alohida mas’uliyat talab qiladi. Chunki paremiyalar asardagi badiiy-tasviriy vositalar sifatida fikrning oddiy bayonidan ko’ra ko’proq asarning obrazli hamda hissiy-tasviriy qiymatini oshirish kabi uslubiy o’ziga xosliklarni ifoda etishda ishtirok etadi. Tarjimalarda paremiyalar bilan bog’liq xatoliklarni ham quyidagicha tasniflash mumkin:

Frazemalar tarjimasi bilan bog’liq muammolar: So’zga nisbatan birmuncha murakkab tarkibli til birligi bo’lmish frazemalarni tarjimada to’g’ri talqin etish masalasi muhim ahamiyat kasb etadi. Frazemalar tarjima jarayonida mas’uliyat bilan yondashish, lingvistik, etnografik, tarixiy bilim talab etadigan birliklardir. Frazeologik birliklarni tarjima qilish o’ta murakkab amaliy jarayon bo’lib, bunga sabab ularning leksik-semantik va qurilish jihatlaridan o’ziga xosligidir [Олимов, 2002:5-12].

“Boburnoma”dagi frazemalarning turkcha tarjimasiga e’tibor bersak, quyidagi holatlar ko’zga tashlanadi:

(Umarshayx mirzo) necha navbat Samarqand ustiga cherik tortti, ba’zi mahal shikast topti, ba’zi mahal bemurod yondi (b.36) – Ya’ni bir necha marta Samarqand ustiga yurish qildi, ba’zan talafot ko’rdi, ba’zida maqsadiga yetolmay qaytdi (izoh bizniki –M.D.).

Bir çok defa Semerkand üzerine asker sevketti. Bazan mağlup oldu; bazan gayesine erişemedен döndü (s.5) –Ya’ni bir necha marta Samarqand ustiga askar jo’natdi, ba’zan mag’lub bo’ldi, ba’zan maqsadiga yetolmay qaytdi. Cherik tortti frazeması “biror joyga askarlari bilan hujum qildi” ma’nosini ifodalaydi, bu birikma turkchaga asker sevketti (askar jo’natdi) tarzida tarjima qilingan.

Bunday frazema “Türk dili deyimler sözlüğü”da topilmaganligini e’tiborga olsak, tarjima natijasida “*hukmdor lashkari bilan borib hujum qilgan*” emas, “*lashkarini boshqa bir lashkarboshi bilan yuborgan*” degan tushuncha kelib chiqadi. Bu gapni *Samarkand’a kaç kez asker çekti* tarzida tarjima qilsa, ma’no aniqroq ifodalangan bo’lar edi. Tarjimada noo’rin qo’llanilgan realiyalar, maqollar, metaforalar, frazeologik birliklar kitobxonlarda kognitiv dissonans, ya’ni matndan qoniqmaslik holatini keltirib chiqaradi.

“Boburnoma”ning qozoqcha tarjimasida frazemalarni tarjima qilishda, asosan, uning mazmunini berish yo’lidan borilgan, masalan:

Ul fataratta Xonzodabegim Muhammad Shayboniyxong’a tushub edi..., (*Boburnoma, 8b*) gapidagi *tushub edi* birligi *қолына түсті* tarzida o’g’irilgan. Turmushga chiqish ma’nosidagi ushbu so’z boshqa o’rinlarda *тұрмысқа шыққан еді* tarzida ham ifodalanganligini hisobga olsak, ushbu gapda uslubiy va mazmuniy xatolik yuzaga kelgan.

Tarjimon asliyat mazmunini aks ettirish uchun tarjimaning transformatsion usulidan foydalangan. Asliyatdagi *tushub edi* ning hodisa mohiyatini ifodalash orqali *қолына түсті* tarzida aks ettiradi. Matn to’liq transformatsiyaga uchrasa va uchramasa ham uning tarjimasida hech qanday yo’qotishlar yuzaga kelmaydi, ammo bu transformatsiya muvaffaqiyatli chiqmaganligini, Bobur aytmoqchi bo’lgan fikrdan uzoqlashilganligini ko’rish mumkin.

Аталған өліарада Ханзада Бегім Мұхаммед Шейбани ханның қолына түсті. (*Babirnama, ...*), *юки, Әндіжан мен Әхсиді Шейбани хан жаулап алғанда, Ядгар Сұлтан бегім Әмзе Сұлтанның Әбділәлип Сұлтан атты ұлының қолына түсті.*

Burunroq Yunusxonning egachisini Ulug’bek mirzo Abdulaziz mirzog’a olib edi (*Boburnoma, 10a*) gapida *olib edi* so’zi *айттырған еді – so’ratgan edi* tarzida o’g’irilgan. Buning oqibatida Abdulaziz Mizoning uylanganligi aniq emas, ammo qizni so’rattirgan edi, degan mazmun kelib chiqadi. *Бұрынырақ Жүніс ханның әпкесін Ұлықбек мырза Әбдіәзиз мырзага айттырған еді* (*Babirnama, ...*).

“Boburnoma” tarjimalarini tahlil qilish shuni ko’rsatadiki, tarjima sifati til qarindoshligi va madaniy yaqinlik omillari bilan bevosita bog’liq. Turkiy tillar kabi genealogik va madaniy jihatdan yaqin tillar o’rtasidagi tarjimalarda semantik aniqlik, stilistik muvofiqlik va ma’no tovlanishlarini to’g’ri uzatish darajasi yuqoriligi kuzatiladi. Bu holat umumturkiy til birliklarining yaqinligi va madaniy tajribaning o’xshashligi natijasida shakllanadi. Demak, tarjima jarayonida til qarindoshligi va madaniy kompetensiya muhim omillar sifatida namoyon bo’ladi. Ammo har qanday vaziyatda ham tarjimon asliyatdan yiroqlashmaslik, asar zamiridagi so’z va frazemalar, realiyalar yoki joy nomlari, tarixiy shaxslar ismlarini tarjima qilishda ehtiyotkorlik bilan yondashishi lozim. Chunki asliyat mansub bo’lgan xalq urf-odatlarini va milliy-madaniy xususiyatlarini, diniy, iqtisodiy-ijtimoiy ahvolini, turmush tarzini mukammal o’rganmay turib, asarda tasvirlangan voqea-hodisalar to’g’risida yetarli tasavvur hosil qilish, shakl va mazmunning uyg’unligidan iborat tarjima yaratish juda qiyindir. Har qanday aslmonand tarjima zamini shakl va mazmunning dialektik birligini tashkil etadiki, uning mazmuniga ko’proq urg’u berib, shaklga e’tiborni susaytirish asarning badiiy va milliy xususiyati, tarixiy o’ziga xosligiga putur yetishiga olib keladi.

“Boburnoma”ning turkcha tarjimasini turkiy tillardagi matnlar ichida originalga eng yaqini hisoblanadi. Bunga hozirgi turk tili leksik qatlamining Bobur tiliga yaqinligi sabab bo’lishi mumkin. Ammo ushbu tarjimada ham bayonchilik uslubiga ko’proq bo’ysunish, so’zlarni tushunish, gap mazmunining to’g’ri berilishi, frazemalar ma’nosining o’zlashtirilishi bilan bog’liq kamchiliklar borligi aniqlandi.

“Boburnoma”ning I. Jemeney tomonidan amalga oshirilgan tarjimasini avvalgi tarjimaga nisbatan tarjimashunoslik talablariga ko’proq mos kelishi aniqlandi. Ammo olib borilgan tahlillar

matn adekvatligini ta’minlashda stilistik va pragmatik tamoyillar buzilganligini ko’rsatdi. Qarindosh tillarga mansub bo’lsa-da, madaniy kod va realiyalar, barqaror birliklar ifodalanishida ikki til o’rtasida nozik farqlanuvchi jihatlar borligi aniqlandi. Shu bilan birgalikda qozoqcha tarjimada mutarjim ko’proq tavsiflash yo’lidan boradi, shuning uchun gaplarda so’zlar miqdori o’zbekcha va turkchaga nisbatan ortiqroqligi, juda ko’p o’rinlarda qo’shimcha tafsilotlarga ehtiyoj sezilganligi kuzatildi.

Adabiyotlar

1. Babür Z. M. Vekayi. Babür’un Natıratı. – Ankara, 1987.
2. Бабыр Зәһиреддин Мұхаммед. Бабырнама. Түркі тілінен қазақшаға аударған және алғы сөз, түсініктер жазған Ислам Жеменей. – Алматы: Нұрлы Әлем, 2022.
3. Ernazarov U. Tarjimashunoslikning dolzarb muammolari. Arab tili globallashuv davrida: innovatsion yondashuvlar va o’qitish metodikasi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman. – Toshkent, 2020.
4. Sirojiddinov Sh., Odilova G. Badiiy tarjima asoslari. – Toshkent: Mumtoz so’z, 2021.
5. Нормуродова, Н. З. (2015). Художественный дискурс и языковая личность в свете актуальных лингвистических направлений: парадигмы знания, основные принципы и тенденции развития. *Вестник Воронежского государственного университета. Серия: Лингвистика и межкультурная коммуникация*, (2), 12-15.
6. Prasad, K., Aladini, A., Normurodova, N.Z. et al. Take language assessment easy: the mediator impacts of self-assessment, test-taking skills in predicting student evaluation apprehension, foreign language learning self-esteem, and language achievement in online classes. *Lang Test Asia* 13, 34 (2023). <https://doi.org/10.1186/s40468-023-00246-0>
7. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. Нашрга тайёрловчи С.Ҳасанов. – Тошкент, 2002.
8. Мусаев Қ. Таржиманинг лингвостилистик муаммолари. – Тошкент, 1988.
9. Раҳимов Ғ. Х. Таржима назарияси ва амалиёти. –Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2016.
10. Холбеков М. Таржима назарияси ва танқиди муаммолари мавзусига бағишланган давра суҳбати / Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – Тошкент, 2014. – №10.
11. Xolmanova Z. Semantik maydon va semantik to’r imkoniyatlari //Computer Linguistics: Problems, Solutions, Prospects. – 2022. – Т. 1. – №. 1.
12. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=aiGGU2YAAAAJ&citation_for_view=aiGGU2YAAAAJ:YsMSGLbcyi4C
13. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=gHnKX3EAAAAJ&citation_for_view=gHnKX3EAAAAJ:kNdYIx-mwKoC
14. O’Razova, Iqbol Abdikarimovna. "XIV ASRNING 2-YARMIGA OID TURKIY YOZMA MANBALARDAGI NOM BILDIRUVCHI FRAZEMALAR." *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences* 2.6 (2022): 829-835.
15. MUKHAMMADIYEVA D. The semantic classification of phrases in “Baburname” and problems of their transfer in Turkish translations //ACADEMICA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL Учредители: Diva Enterprises Private Limited. – 2020. – Т. 10. – №. 6. – С. 912.
16. Xurramov O. ALISHER NAVOIYNING “HOLOTI PAHLAVON MUHAMMAD” DA TARIXIY HAQIQAT IFODASI //Conferences. – 2025. – Т. 1. – №. 1.

MUNDARIJA		
I SHO‘BA. TARJIMASHUNOSLIKNING DOLZARB MASALALARI		
1.	Zuhriddin ISOMIDDINOV. Bizdagi tarjima muammolari	5
2.	Uzoq JO‘RAQULOV. O‘zbek tarjimachiligi istiqbollari	9
3.	Xurram RAHIMOV. Alisher Navoiyning “Munojot” asari tarixi, tabdili va tarjimalari xususida	14
4.	Олимджон КАСИМОВ, Мартаба СУЛТОНЗОДА. Некоторые лингвистические особенности перевода лексем «Шахнаме» на русский язык	17
5.	Ne‘matilla OTAJONOV. Eiji Mano – boburshunos olim	22
6.	Rukhsana IFTIKHAR. Beautification of Mughal women	26
7.	Наталья ФИЛИМОНОВА. Возможности перевода при работе иностранных учащихся с художественным текстом: начальный этап изучения русского языка	30
8.	Kosimboy MAMUROV, Nargiza TILAKOVA Functional syntax and mystical semantics: correlating syntaxemes with sufi concepts in Alisher Navai’s Uzbek and English ghazals	34
9.	Xayrulla HAMIDOV. Muslimbek Yo‘ldoshevning tarjimonlik mahorati	38
10.	Ирода СИДДИКОВА. К вопросу взаимосвязи психолингвистики и художественного перевода	43
11.	Xayrulla HAMIDOV, Zulfizarxon QORAXO‘JAYEVA. Nafisiyning “Jannatning yarim yo‘lida” asaridagi personaj portretining tarjimada berilishi	46
12.	Абдумажид МАДРАИМОВ, Аскарый МАДРАИМОВ. Вопросы перевода научного наследия Захириддина Мухаммада Бабура и традиция перевода в библиотеке Акбара в XVI веке	51
13.	Supriya BANERJEE, Iroda UMAROVA Reimagining classics: Tagore, translation and the global reader	54
14.	Ziyodaxon TESHABOYEVA. “Boburnoma”da milliy-madaniy xususiyatli til birliklar va ularning inglizcha tarjimalari	58
15.	Zulhumor MIRZAEVA. Politics under the mask of poetics: Chulpon’s translations in the 1920s-1930s	62
16.	Abdumajid MAMADALIYEV. Badiiy matn tarjimasida milliy koloritni ifodalash muammosi	72
17.	Muhammadjon ABDUVALIYEV. Sinxron tarjimashunoslikning zamonaviy masalalari	74
18.	Мұратбек БАҒИЛА, Кәмшат АЙМАҒАМБЕТОВА. Қазақ тілін оқыту әдістемесінің жаңа парадигмалары	80
19.	Shermurod SUBHON. Ijodiy kengashlarda	84

20.	Shermurod SUBHON. Kitobxon oldida mas’uliyat	97
21.	Murtazo SAYDUMAROV, Mahmudaxon SAYDUMAROVA. O‘zbek adabiyotining ilk romani tarjimalarida lingvomadaniy xususiyatlar va semantik o‘zgarishlar	100
22.	Mahmadiyor ASADOV. Tarjima – qiyosiy adabiyotshunoslikning tadqiqot obyekti	107
23.	Toshtemir ALIMOV. Gender as a linguistic and cultural parameter in literary translation	113
24.	Tozagul MATYOQUBOVA. Ilk hasbi hol qasida va uning o‘zbek tarjimoni	116
25.	Dilafruz MUHAMMADIYEVA. “Boburnoma”ning turkcha tarjimasi bilan bog‘liq muammolar	120
26.	Umida TURAeva. Some challenges of translating forensic terminology between English and Uzbek	125
27.	Елена ПАНОВА. Мифопоэтическая традиция и проблемы перевода и функционирования онимов в волшебной повести «Алиса в стране чудес» Л. Кэрролла	128
28.	Gulnoz MAMARASULOVA. Siyosiy matn tarjimasining lingvokulturologik jihatlari	137
29.	Эльнора БАГАВОВА. Эволюция переводческих теорий: от традиционных подходов к современным тенденциям	140
30.	Dilfuza KHUDAIBERDIEVA. Translation studies: traditional and modern approaches	144
31.	Gulnoz MAMARASULOVA, Ruxshona CHO‘LIYEVA. Diplomatiik matnlarning tarjimada ifodalanishi	148
32.	Dilshod AMIRQULOV. Tarjimashunoslikda til tipologiyasi asosida komparativ yondashuv	151
33.	Tozagul NASRULLAEVA. Literary translation as interpretation: on the basis of Dreiser’s literary works	154
34.	Мохира ЭШКУВАТОВА, Достонбек АХМАДОВ. Роль лингвострановедческого компонента в обучении переводу	156
35.	Islom TURDIYEV. Ingliz va o‘zbek tillaridagi ayrim ish yuritish terminlarining tarjima talqinidagi muammolari	160
36.	Фотима УМИРЗАКОВА. Проблемы традиционных и современных подходов в немецком переводе	163
37.	Shohsanam BEKMURATOVA. Maqollar tarjimasida tarjimonlarining lingvomadaniy yondashuvlari	166
II SHO‘BA. QIYOSIY TILSHUNOSLIK MASALALARI		
38.	Sayed Mohamed Ahmad KORAYEM. Principles for developing comparative linguistic studies	171
39.	Nedim BAKIRCI. Milli kimlik inshasinda halk biliminin islevi	183
40.	Farhad RAHIMI. Beş, bel, bilek, elik/ el ve ilik kelimelerinin etimolojik ve anlamsal bağlantilari	190